



# YANGI TOSHKENT STADIONI YOSHLAR UCHUN ILHOM, XALQIMIZ UCHUN IFTIXOR RAMZI VA MUXLISLARGA KATTA SOVG‘A BO‘LADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-noyabr kuni Yangi Toshkentda yirik sport inshooti – zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamal toshi qo‘yish marosimida ishtirok etdi.**



So‘nggi besh yil mamlakatimiz futbol sohasida tub burilish davri bo‘ldi. Jumladan, mahalliy chempionatlar tizimi isloh qilinib, bolalar va o‘smirlar akademiyalari tashkil etildi, hududlarda 75 ta katta va 302 ta mini stadion faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma‘lumki, 2017-yilda yurtimizda FIFA va Osiyo futbol konfederatsiyasi talablariga javob beradigan maydonlarning soni atigi 3 ta bo‘lgan. Bugun ularning soni 10 tadan oshdi.

Yaqinda Yuqori Chirchiq tumanida zamonaviy Milliy futbol markazi qurib bitkazildi. Futbol maktablarida 65 mingdan ortiq yoshlar mashg‘ulotlar o‘tkazmoqda. Ushbu maktablarga jahonning nufuzli futbol klublaridan trenerlar, sport tibbiyoti va farmakologiyasi bo‘yicha malakali mutaxassislar jalb qilingan.

Futbolchilarni mahalladan boshlab seleksiya qiladigan tizim yaratildi. Bunga alohida imtiyozlar joriy qilinib, 9 mingdan ziyod mahallaning 70 foizida futbol uchun mini maydonchalar tashkil etildi.

Shuningdek, 1,5 mingta maktabning futbol stadionlari ta‘mirlanib, 1 milliondan ziyod o‘quvchi va mahalla yoshlari qamrab olindi. Yoshlar o‘rtasida mahalla, tuman, viloyat va respublika turnirlarini an‘anaviy o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Musobaqalarda o‘zini ko‘rsatgan iqtidorli yoshlar futbol maktablariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinmoqda.

Bu sa‘y-harakatlar o‘z natijasini bera boshladi.

— Futbol bo‘yicha olimpiya terma jamoamiz o‘tgan yili Parijdagi olimpiadada birinchi marotaba ishtirok etdi. Tariximizda ilk bor milliy terma jamoamiz kelgusi yilda bo‘ladigan jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. Ayni kunlarda Qatarda bo‘layotgan jahon chempionatida o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan futbolchilarimiz Osiyo chempioni sifatida mamlakatimiz sharafiga himoya qilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari marosimda.

Bugun dunyoning turli nufuzli klublarida to‘p surayotgan 20 nafar futbolchimizning umumiy transfer qiymati 60 million dollardan oshdi. Ayniqsa, o‘tgan oydan boshlab hamyurtimiz Abduqodir Husanov Osiyoning eng qimmat futbolchisiga aylangani barchamizga faxr va iftixor bag‘ishlaydi.

Bu natijalar so‘nggi yillarda yaratilgan imkoniyatlar hisobiga milliy futbol maktabining xalqaro darajada tan olina boshlaganidan dalolat.

— Yaqinda FIFA prezidenti Janni Infantino mamlakatimizga tashrifi davomida O‘zbekistonda futbolga e‘tibor, yaratilgan infratuzilma, boshqarish tizimidagi islohotlar bilan yaqindan tanishib, ushbu sportdagi tub o‘zgarishlarni yuqori baholadi. Janob Infantino samimiy muloqotimiz chog‘ida xalqaro futbol hamjamiyatining mamlakatimizga bo‘lgan ishonchi tobora ortib borayotgani, O‘zbekiston futbolni “Osiyo grandlari” darajasida ekanini alohida ta‘kidladi, — dedi Prezident.



2-oktabr kuni FIFA Kengashi yig‘ilishida futbol bo‘yicha 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida 2027-yildagi jahon chempionatini O‘zbekiston va Ozarbayjonda o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Ushbu jahon chempionati doirasidagi o‘yinlar ikki mamlakatdagi 3 tadan stadionda o‘tkaziladi. Jahon chempionatlarining final va yarim final o‘yinlari sig‘imi 50 mingdan ko‘p bo‘lgan stadionda o‘tkazilishi FIFA talablaridan biri hisoblanadi.

— Shu bois, mamlakatimiz futbolini uchun muhim loyiha — Yangi Toshkent stadioni qurilishini boshlaymiz. Qiymati 100 million dollarlik ushbu stadion qurilishi uchun nega aynan Yangi Toshkent hududi tanlandi? Sababi Yangi Toshkent kelajakda mamlakatimizning yangi imkoniyatlar va ilg‘or g‘oyalari markaziga aylanadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Yangi Toshkent hududidagi barcha loyihalar zamonaviy me‘morchilik va milliy qadriyatlar uyg‘unligida ekologik va “aqli boshqaruv”ga

asoslanib barpo etilmoqda. Shu umumiy konsepsiya asosida quriladigan yangi stadion ham tabiat bilan uyg‘un bo‘ladi hamda “yashil energiya”, “aqli boshqaruv” va “qulay muhit” tamoyillariga asoslanadi.

Yangi Toshkent stadioni FIFAning barcha talablariga mos ravishda barpo etiladi hamda Osiyodagi eng yirik va zamonaviy infratuzilmaga ega futbol maydonlaridan biri bo‘ladi.

Bu inshoot nafaqat 2027-yilgi 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasidagi jahon chempionati uchun, balki butun o‘zbek futbolini va yoshlar sportining kelgusi o‘n yillik rivoji uchun xizmat qilishi ta‘kidlandi.

Qayd etish lozim, mamlakatimizning yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionatiga mezbonlik qilishi xalqaro hamjamiyatning O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchi va hurmatining yana bir ifodasidir.

Shu munosabat bilan chempionatga tayyorgarlik bo‘yicha alohida davlat dasturi qabul qilinishi aytiladi. Infratuzilma, transport,

mehmonxona, tibbiy xizmat va volontyorlik tizimlari bo‘yicha mas‘ul vazirliklarga aniq vazifalar belgilab beriladi.

— Yangi Toshkent stadioni uchun hozir biz qo‘yadigan tamal toshi — bugungi mehnatimizning va ertangi g‘alabalarimizning asosidir. Ishonamanki, bu ulkan inshoot yoshlar uchun ilhom, xalqimiz uchun iftixor ramzlaridan biri bo‘lib, yurtimizdagi millionlab futbol muxlislariga katta sovg‘a bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent stadioni poydevoriga kapsula qo‘yib, qurilishini boshlab berdi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
O‘ZA muxbirlari**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati suratlari.**

## O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-noyabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.**

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Tovar ayiriboshlashning o‘shish sur‘atini saqlab qolish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiyani, shu jumladan, energetika sohasidagi qo‘shma loyihalarni ilgari surish, hududlarning ishbilarmonlik aloqalari va madaniy-gumanitar almashinuvini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Joriy yil 22-oktabr kuni Moskva viloyatida o‘tgan O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining ikkinchi yig‘ilishi samarali bo‘lgani mamnuhiyat bilan qayd etildi.

3-dekabr kuni bo‘ladigan O‘zbekiston — Rossiya Hukumatlararo komissiyasining navbatdagi yig‘ilishi va uning doirasida qo‘shma biznes forumini samarali o‘tkazish muhimligi ta‘kidlandi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi, bo‘lajak tadbirlarning rejasini muhokama qilindi.

**O‘ZA**

## ATROF-MUHIT SIFATINI YAXSHILASH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-noyabr kuni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, atmosfera havosini yaxshilash, yashil hududlarni ko‘paytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin amaldagi tizimdagi tarqoqlik, mas‘uliyat va vakolatlarning turli idoralar o‘rtasida bo‘linib ketgani natijasida ishlar samarasi ham doimo kutilgan darajada bo‘lmayapti.

Shu munosabat bilan yig‘ilishda sohada boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Atrof-muhit sifatini, shaharlarda atmosfera havosini yaxshilash, yashil hududlarni rivojlantirish, tabiatga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish va tabiiy merosni muhofaza qilish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish hamda moliyalashtirishni markazlashgan holda olib borish taklif etildi.

Ekologik nazoratni alohida yondashuvlar asosida yo‘lga qo‘yish va mas‘ul idoralarning vakolatlarini kengaytirish rejalari haqida ma‘lumot berildi. Bunda sohadagi qoidabuzarliklarga qarshi tezkor chora ko‘rish, daraxtlarning noqonuniy kesilishi, havoning

ifloslanishini oldini olish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish mexanizmlari, shuningdek, sanoatda ekologik tartibga solishni takomillashtirish va aholi punktlarida yashil hududlarning saqlanishini ta‘minlash choralari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni ma‘qullab, ularni boshqaruvda sifat va samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqish, nazorat va mas‘uliyatni kuchaytirish nuqtayi nazaridan yanada takomillashtirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

**O‘ZA**



## 120 YIL XALQ BILAN BIRGA

**11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni hamda O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri tashkil etildi.**

O‘zbekiston kasaba uyushmalari saroyida o‘tkazilgan tantanali tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi vakillari, senatorlar, deputatlar, soha faollari, xalqaro mehnat va kasaba uyushmalari tashkilotlarining rahbarlari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston kasaba uyushmalari faollari va a‘zolariga tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamenti rahbari — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari hamda mamlakat kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi nishonlanayotgan kunlar kasaba uyushmalari tarixiga zarhal harflar bilan yoziladigan sana bo‘ldi. Zero, ushbu bayram munosabati bilan kasaba uyushmalari harakati rivojiga munosib hissa qo‘shgan bir guruh faol, fidoyi va tashabbuskor yurtdoshlarimiz Prezidentimizning farmoni bilan davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva mukofotlarni tantanali ravishda o‘z egalariga topshirdi.

**Davomi 2-beta**



## VATANGA SADOQAT, INSON HAYOTIGA HURMAT VA FIDOYILIK IFODASI

**Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida keyingi yillarda kechayotgan tarixiy yangilanishlar jarayonida sog‘liqni saqlash tizimida chuqur islohotlar, inson qadri va hayot sifatiga qaratilgan yangi yondashuvlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.**

Natijada birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foiz oshib, tibbiy xizmat aholiga ancha yaqinlashdi. Ilgari, asosan, poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortig‘i hududlarda amalga oshirilmoqda. Yuzlab murakkab amaliyotlar viloyat markazlariga, kam invaziv operatsiyalar esa tuman darajasiga tushirildi. O‘zbekistonda o‘rtacha umr davomiyligi erkaklar o‘rtasida 71 dan 73 yoshga, xotin-qizlar orasida esa 76 dan 77,5 yoshga uzaygani ham ayni yo‘nalishdagi islohotlar samarasidan dalolat beradi, albatta.

Prezidentimizning tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan 10-noyabr kuni uchrashuvi hamda Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirish marosimida belgilangan vazifalar, ilgari surilgan tashabbuslar tibbiyot sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish, ayni yo‘nalishdagi islohotlarni tizimli davom ettirishga zamin yaratishi shubhasiz.

Zero, davlatimiz rahbari mazkur sana munosabati bilan soha vakillarini samimiy tabriklab, ularning fidokorona mehnatini eng yuksak qadriyat sifatida e‘tirof etdi.

**Davomi 3-beta**



## A group of performers in traditional Chinese costumes are performing on a stage. The backdrop is a large, colorful, circular patterned screen. The performers are wearing traditional Chinese clothing, including long skirts and jackets. They are arranged in a line, and some are holding instruments. The stage is decorated with a large, colorful, circular patterned screen. The performers are wearing traditional Chinese clothing, including long skirts and jackets. They are arranged in a line, and some are holding instruments. The stage is decorated with a large, colorful, circular patterned screen.

**Bahor XIDIROVA,**  
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



YANGI O‘ZBEKISTON

Munosabat

Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, farmatsevtika tarmog‘ining tibbiyotdagi o‘mi e’tiborga olinib, bayramni endilikla Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni sifatida nishonlash taklifi bildirildi.

Tibbiyotda xalq bahosini eshitadigan yangi tizim, soha xodimlarini rag‘batlantirishning yangi mexanizmlari joriy etilishi kabi qator vazifalar belgilandiki, bularning barchasi tizim samaradorligi, soha

xodimlari fidoyiligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Shifokor egnidagi oq libos vatanga sadoqat, inson hayotiga hurmat va fidoyilik ramzi sifatida e’tirof etildi. Mukofotlanganlar orasida xalq salomatligi yo‘lida sidqiddan mehnat qilib kelayotgan bir guruh shifokorlar, xorijlik hamkorlar, yosh mutaxassislar borligi tibbiyot tizimining yangi avlodi shakllanayotganidan dalolat beradi.

# VATANGA SADOQAT, INSON HAYOTIGA HURMAT VA FIDOYILIK IFODASI

2025-yil 12-noyabr, 233-son

## HAR BIR MARKAZ VA SHIFOXONA XALQNIKI!

Mahmarasul UMAROV,  
Jizzax viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i



Davlatimiz rahbarining tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan uchrashuvi nafaqat soha vakillari, balki butun jamiyatimiz hayotida katta voqea bo‘ldi. Chunki tibbiyot inson hayoti, millat salomatligi va jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq eng mas’uliyatli jabhalardan. Shu bois, Prezidentimiz mazkur uchrashuvda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, kadrlar salohiyatini oshirish, shifokorlar mehnatiga munosib sharoit yaratish va soha nufuzini yanada yuksaltirish orqali aholini tibbiyotdan rozi qilish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar, berilgan vazifa va bildirilgan fikrlar mamlakatimizda tibbiyot sohasini tubdan yangilashga yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilayotganining yaqqol dalilidir. Prezidentimiz uchrashuvda biz, soha vakillariga chuqur hurmat va minnatdorlik izhor etib, tibbiyot tizimini isloh qilishda yangi, aniq vazifalarni belgilab berdi. Xususan, tibbiyot muassasalaridagi boshqaruvni tubdan yangilash, zamonaviy menejmentni joriy etish, shifokor va hamshiralarning mehnatini munosib rag‘batlantirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish kabi muhim masalalar bugunning talabi asosida belgilandi.

Tibbiyot samaradorligini oshirish maqsadida bosh shifokor lavozimiga menejerlik ko‘nikmalariga ega nomzodlarni tayinlash, shifokor va hamshiralarning mehnatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha juda muhim tashabbuslar ilgari surildi. Bu, shubhasiz, tizimda haqiqiy raqobat va natijadorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, har bir tuman va shahar sog‘liqni saqlash bo‘limlari faoliyati aholining sog‘lig‘ini saqlash bilan bog‘liq tahlillar asosida tashkil etilishi lozim. Ya’ni qaysi hududda qanday kasallik ko‘paygani yoki kamayganini ilmiy tahlil qilish, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilash, profilaktik ishlarini kuchaytirish bugunning dolzarb vazifasidir.

O‘z navbatida, mazkur vazifalar Jizzax viloyati sog‘liqni saqlash tizimi faoliyati uchun ham muhim dasturlamal bo‘lib xizmat qiladi. Bugun hududda

aholi salomatligini muhofaza qilish, kasalliklarni erta aniqlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish hamda profilaktik yo‘nalishni kuchaytirish borasida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Viloyatda 1,5 milliondan ortiq kishiga 188 ta tibbiyot muassasasi xizmat ko‘rsatmoqda. Jumladan, viloyat darajasidagi 16 ta markaz va shifoxona, 13 ta tuman va shahar tibbiyot birlashmasi, 35 ta oilaviy poliklinika hamda 79 ta oilaviy shifokorlik punkti faoliyat yuritmoqda. Bu orqali aholiga yaqin, qulay va zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi shakllantirildi.

Ta’kidlaganidek, har bir hududda kasalliklar tahliliga tayanadigan boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish muhim. Jizzax viloyatida ham bu amaliyot izchil joriy etilmoqda. Har bir tuman bo‘yicha aholining kasallanish ko‘rsatkichi tahlil qilinmoqda. Yuqori xavf guruhlari bilan maqsadli profilaktika ishlari bajarilmoqda.

Qandli diabet, yurak-qon tomir va nafas olish tizimi kasalliklari bo‘yicha keng qamrovli skrining yo‘lga qo‘yilib, 2025-yilning o‘tgan davrida 500 mingdan ziyod fuqaro profilaktik ko‘rikdan o‘tkazildi. Aniqlangan kasalliklar bo‘yicha nazorat va dispanser kuzatuv tizimi to‘liq raqamlashtirilmoqda.

Yig‘ilishda Jizzaxda qalqonsimon bez kasalligiga chalinish yuqoriligi tanqid qilindi. Bundan to‘g‘ri xulosa chiqarib, mazkur kasallikning sabablarini o‘rganib, oldini olish bo‘yicha aholi orasida targ‘ibot va tashviqot ishlarini kuchaytiramiz.

Prezidentimiz onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilishni eng ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berdi. Bu borada viloyatimizda qilinayotgan ishlar samara bermokda. Jumladan, 2025-yilning o‘tgan

davrida 30 ming nafardan ziyod chaqaloq dunyoga keldi. Onalar va go‘daklar o‘limi ko‘rsatkichi o‘tgan yildagiga nisbatan sezilarli kamaydi. Bu profilaktik ko‘riklar, to‘liq perinatal kuzatuv va oilaviy shifokorlar mas’uliyatini oshirish natijasidir.

Hozir 383 mingdan ziyod ayol muntazam profilaktik ko‘rikdan o‘tkazilmoqda, bachadon bo‘yni va ko‘krak bezi saratoni bo‘yicha skrininglar tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Bolalar salomatligini mustahkamlash borasida 563 mingdan ortiq o‘g‘il-qiz tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, aniqlangan kasalliklar bo‘yicha sog‘lomlashtirildi. Shu bilan birga, “Bolalar salomatligi haftaligi” doirasida 6 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan 156 ming bolaga vitamin va mikronutrientlar bepul yetkazib berildi.

Har bir tumandagi shifoxona va poliklinikalar faoliyatida samaradorlikni oshirish, zamonaviy tibbiy uskunalardan to‘liq foydalanish, raqamlashtirish tizimini joriy etish borasida aniq rejalar ishlab chiqilgan. “Har bir markaz va shifoxona davlatniki, xalqniki!” degan tamoyildan kelib chiqib, endi barcha rahbarlar faoliyati bemorlar manfaatiga yo‘naltirildi.

Shuningdek, tibbiy ta’limni isloh qilish, oilaviy shifokorlik institutini rivojlantirish, oliy ma’lumotli hamshiralarning ulushini oshirish, mehnatini munosib rag‘batlantirishga qaratilgan choralar ham sohadaq tizimli o‘zgarishlarning muhim yo‘nalishidir. Bu islohotlar Jizzax viloyati tibbiyot muassasalarida ham amaliyotga joriy etiladi. Yosh kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimizning shu yil 9-noyabrdagi “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini

qo‘llab-quvvatlash choralarini to‘g‘risida”gi qarori asosida soha xodimlariga yangi imkoniyat va imtiyozlar berildi. Jumladan, barcha turdagi davlat xizmatlari uchun to‘lovlar miqdori ikki baravar kamaytirilishi, qo‘shimcha 100 milliard so‘m ajratilishi, ish haftasini besh kunlikka o‘tkazish kabi choralar tibbiyot xodimlarining turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shuningdek, yangi davolash usullarini joriy qilgan shifokorlar uchun pul mukofoti, kamida 15 yillik mehnat stajiga ega xodimlarga sanatoriylarga bepul yo‘llanma va farzandlarining oliygo‘hlarida o‘qishi uchun chegimlar taqdim etilishi, xalqaro ilmiy jumallarda maqola chop ettirish xarajati qoplanishi va yosh mutaxassislarni xorijda malaka oshirishga yuborish imkoniyati soha xodimlarini rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini ipoteka krediti asosida uy-joy bilan ta’minlash, yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko‘rsatish kabi qo‘shimcha imtiyozlar ham ularning ijtimoiy himoyasini mustahkamlaydi. Viloyatimizda mazkur imkoniyatlardan foydalanib, tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatini yanada rivojlantirish, xalqimizga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish yo‘lida barcha chorani ko‘ramiz.

Uchrashuv biz — tibbiyot xodimlari zimmasiga katta ishonch va yangi mas’uliyat yukladi. Prezidentimiz “Bundan buyon ham shifokorning, har bir tibbiyot xodimining obro‘-sini himoya qilish, unga har tomonlama munosib sharoit yaratish e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Ishonchim komil, biz birgalikda Yangi O‘zbekistonni boshqa sohalar qatorida tibbiyotni ham rivojlangan davlatga aylantiramiz”, deb ta’kidladi. Bu so‘zlar har bir tibbiyot xodimi qalbida yangi ruh, yangi ishonch va fidoyilik tuyg‘usini to‘qlinlantiradi. Ana shu ishonch va mas’uliyatdan kuch olib, aholi salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda barcha imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.



## E’TIBOR VA RAG‘BAT ULKAN MAQSADLARGA UNDAYDI

Marhaboxon ALIYEVA,  
Oltiariq tumanidagi 89-oilaviy poliklinika mudirasi,  
II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi



Prezidentimizning “Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Bu quvonchli xabarni eshitib, ko‘zimdagi quvonch yoshlari balqidi. Kutilmagan yangilikdan nafaqat oilamiz, balki butun mahallamizda bayram bo‘lib ketdi. Qutlash uchun ostona hatlab kelgan mahalladoshlarim izhorlarini eshitib, ko‘nglim ko‘tarildi, faxr, iftixorga to‘ldi.

Andijon davlat tibbiyot oliygohini tamomlab, shifokor bo‘lib ishlayotganimga 30 yil bo‘ldi. To‘g‘risi, avvalgi ish sharoitimiz bilan bugungi imkoniyatlarni qiyoslab bo‘lmaydi. Ilgari aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ishlar o‘z holicha edi. Tibbiy jihozlar, malakali vrachlar yetishmasligi aholi, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishda muammolarga sabab bo‘lgan. Oddiy qon tahlilini aniqlash uchun tuman markaziga borishga majbur edik. Endi hammasi o‘zgardi.

Men rahbarlik qilayotgan 89-oilaviy poliklinika Oltiariq tumanida 8 ta mahalla fuqarolar yig‘inidagi 22 ming 366 aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatadi. Tibbiyotni raqamlashtirish, “elektron poliklinika”lar xizmatidan foydalanish borasida jamoamizda birinchilardan bo‘lib islohotlar qilindi. Natijada kasalliklarni erta aniqlash, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami yangi bosqichga chiqdi. Har bir mahalla kesimida tibbiyot brigadalari tashkil etildi. Mazkur tizim aholi salomatligini muhofaza qilish, tashxis, tahlil qilish, kasallikni erta aniqlash va samarali davolash bilan bog‘liq ish jarayonlarini muvofiqlashtirdi. Endi fuqaro “elektron poliklinika” orqali ro‘yxatga olingach, oilaviy shifokorga yo‘naltiriladi. Shifokor bemor uchun zarur tekshiruvlarni belgilab bergach, laboratoriya xodimi mazkur ma’lumotlar asosida bemordan kerakli tahlillarni oladi va yana shifokorga yuboradi. Bu jarayon fuqaro va shifokor vaqtini tejab, tibbiy ma’lumotlarni xavfsiz saqlash imkoniyatini bermokda. Bemorning barcha tahlillari elektron tarzda oilaviy shifokorda ko‘rinib turadi. U shunga asoslanib, murojaatchiga elektron retsept beradi. Bemoring belgilangan dorini olishi ham elektron tarzda nazoratga olingan. Fuqarolar esa tibbiy tahlillarini, kasallik tarixini uyda o‘tirgan holda onlayn tarzda kuzatish imkoniga ega. Yangi tizim aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq jarayonlarni maqbullashtirib, ortiqcha

ovoragarchiliklarning oldini oladi. Shu kabi yangilanishlar sabab bugun nogironlik ko‘rsatkichi pasaydi. Yuqumli kasalliklar bilan og‘rish holatlari ham sezilarli darajada kamaydi.

Salomatlik va fiziologik holatiga ko‘ra aholi tegishli guruhlariga ajratilib, tibbiy xatlovdan o‘tkazilmoqda. Chunki birlamchi bo‘g‘in to‘laqonli va samarali ishlasa, aholining salomatlik ko‘rsatkichi yaxshilanadi. Xavfli xastaliklarga chalinish keskin kamayadi. Shu bois, kasalliklarning oldini olish maqsadida muntazam ravishda madaniy-ma’rifiy tadbirlar, targ‘ibot va profilaktika ishlarini o‘tkazishga alohida ahamiyat qarataymiz.

Prezidentimiz 10-noyabr kun tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan o‘tkazgan uchrashuvda o‘z yechimini kutayotgan masalalar tahlil qilindi. Yangi vazifa va imkoniyatlar belgilab berildi. Xususan, raqamlashtirish, xorijdan hamkor topish, klinik protokollarni yangilash, ilg‘or diagnostika, profilaktika va davolashni uddalaydigan zamonaviy jamoa shakllantirish barcha tibbiyot markazlari, viloyat, tuman sog‘liqni saqlash boshqarma va bo‘limlarining birinchi navbatdagi vazifasi bo‘lishi qayd etildi. Eng namunal viloyat, tuman sog‘liqni saqlash bo‘limlari, oilaviy poliklinika mudirlariga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan tibbiyot xodimi” unvoni, orden va medallar, 30 million so‘mdan pul mukofoti beriladigan bo‘ldi. Ular rahbarlik qilayotgan shifoxona va poliklinika infratuzilmasini yaxshilashga 500 million so‘mdan ajratiladi. Bularning barchasi malakali kadrlar salohiyatini oshirish va soha rivojiga xizmat qiladi.

Prezidentimizning “Men shifokor egnidagi oq libosni nafaqat kasb belgisi, balki Vatanga cheksiz sadoqat ramzi deb bilaman”, degan so‘zlari men kabi barcha tibbiyot xodimlariga kuch-quvvat, ilhom bag‘ishladi. Bunday e’tibor va rag‘bat yangi maqsad, rejalar sari undaydi, albatta.

2018-yilda Toshkent pediatriya tibbiyot institutining bakalavr bosqichini tamomlaganindan keyin “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiyasiga erishganman. Ezgu niyat bilan London shahrida kuchli o‘ntalikda turadigan universitetda magistratura bosqichida tahsil olib qaytdim. Germaniya, Avstraliya, Yaponiya singari rivojlangan davlatlarning yetakchi klinikalarida bolalar kardiologlarligi bo‘limlarida professorlar bilan yonma-yon turib operatsiyalar qilganimda, malaka oshirganimda bolalar kardiologlarligining eng so‘nggi yutuqlarini o‘rgandim. 2019-yildan buyon bolalar kardiologlarligi sifatida ishlab, 1000 dan ortiq yurak operatsiyasini amalga oshirishga erishganimni esa davlatimizning alohida qo‘llovi samarasi deb bilaman.



Bobur TO‘RAYEV,  
Toshkent davlat tibbiyot universitetining bolalar ko‘p tarmoqli klinikasi kardioxirurgiya bo‘limi kardiologlarligi

## BOLALAR KARDIOJARROHLIGIDA ALOHIDA MAKTAB YARATAMIZ

Shu yil yozda yurak quloqchasidan klapan yasash texnologiyasini O‘zbekistonda ilk bor qo‘llashga muvaffaq bo‘ldik. Alohida aytishni istardimki, bu borada ham bizga bildirilgan ishonch muhim omil bo‘ldi. Murakkab operatsiyani Toshkent davlat tibbiyot universitetining bolalar ko‘p tarmoqli klinikasida 6 yoshli bemorda amalga oshirdik. Uch tavaqali klapan yetishmovchiligi bo‘lgan bolakayni Avstraliyadagi ustozlarimdan o‘rgangan texnologiya yordamida hayotga qaytardik. Bolaning o‘ynab yurganini ko‘rganimda, besh soat davom etgan operatsiya chog‘idagi xavotirlar, mashaqqatlarimiz unut bo‘lib ketdi. Bir bemorimizning shifo topib ketishi uchun 30 dan ortiq hamkasbim bilan mehnat qilamiz. Shuning uchun mehnat berilgan “Shuhrat” medalini butun jamoamizga e’tibor, alohida hurmat deb bilaman.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda bolalar kardiologlarligi ham izchil rivojlanayapti. Yaqin-yaqingacha bu yo‘nalishda, asosan, tug‘ma yurak nuqsonlari davolanardi. Tug‘ma yurak nuqsonlarining 40 ga yaqin turi mavjud bo‘lsa, ularni davolash uchun 100 ga yaqin turdagi

operatsiya bor. Bizda oddiy turdagi yurak operatsiyalari, asosan, yoshi kattaroq bemor bolalarda o‘tkazib kelingan. Bugunga kelib, kichik yoshdagi bolalarning murakkab turdagi yurak jarrohliliklari yo‘lga qo‘yildi. Hamyurtlarimizning yurak operatsiyasi uchun avvalgidек xorijga borishi keskin kamaygan. Aksincha, qo‘shni respublikalardan kelayotgan bemorlar soni oshib borayotir. Bu, albatta, bizzim, butun tizimning katta yutug‘i.

Aslida, bugun hamma soha jadal rivojlanayapti. Bunday siljish ortida davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar yotibdi. Tibbiyotdagi katta o‘zgarishlar ham ilmiy, ham amaliy islohotlar sohaga alohida e’tibor va inson qadri ortishi bilan bog‘liq. Ayniqsa, chet el tajribasini o‘rganib, yurtimiz tibbiyotiga tatbiq qilishga keng yo‘l ochib berilgani yosh, ilmiy izlanuvchi kadrlarni katta-katta yangiliklar qilishga undayapti. Tibbiy sug‘urta joriy etilishi, tibbiy ta’limning isloh qilinishi kabi ezgu harakatlar esa bemorlarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini oshirishga yordam berayapti.



Tibbiyot xodimlari kunida davlat mukofoti bilan taqdirlanishimni umuman kutmagandim. Zero, yuqorida aytganimek, chetda o‘qib, malaka oshirganim, shu yurt, shu xalq uchun mehnat qilayotganimning o‘zi oliy mukofot. Shunday jamg‘armalar bor ekan, yoshlarning ilmiy izlanishlari, yangicha ishlashiga imkon bo‘laveradi. Ochig‘ini aytishim kerak, men o‘z hisobimdan balki umuman chet elda o‘qiy olmagan bo‘lardim. Xorijda o‘qish istagimni shu vatan, shu xalq amalga oshirdi. Bugungi darajaga yetganim uchun ham mamlakatim,

xalqim oldida bir umr qarzdorman. Tanlagan soham rivojiga hissa qo‘shish, xalq ishonchini oqlash — farzandlik burchim. Shunday bo‘lsa-da, mehnatlarimiz yuqori baholalanib, yuksak mukofotga munosib ko‘rildim. Bu e’tirofni mehnatim bilan oqlashga harakat qilaman. Kelajakda bolalar kardiologlarligi bo‘yicha alohida bir maktab yaratib, O‘zbekistonni shu yo‘nalishda eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga bor kuchim bilan intilaman. Chunki bu e’tirof bizga kuch, o‘z ustimizda ishlashga, sohani rivojlantirishga ilhom beradi.

## Nuqtayi nazar

TARAQQIYOT  
YO‘LIMIZGA UYG‘UN  
KELISHUVLAR

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “C5+1” formatidagi AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashuvda davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildi.

Jamila BOBONAZAROVA,  
Oliy Majlis Senati a‘zosi

Keyingi yillarda O‘zbekiston — AQSH munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. Tovar ayiriboshlash hajmi 4 barobar ko‘payib, qariyb 1 milliard dollarga yetdi. Mamlakatimizda okeanorti davlatining 300 dan ortiq kompaniyasi faoliyat yuritib, sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika va innovatsiya sohalari bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotir.

Hozirgi jahon amaliyotida faol investitsion siyosat yuritish, investitsiyalar samaradorligini oshirishning maqbul mexanizmini izlab topish dolzarb masalalardan biridir. Nisbatan qisqa vaqt ichida iqtisodiy jihatdan katta natijalarga erishayotgan mamlakatlar tajribasi ham bu borada alohida ahamiyatga ega. Shu bois, yurtimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish kabi yo‘nalishlarda investitsiyalardan foydalanish, ularni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda investitsion muhitni yanada yaxshilashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan turli iqtisodiy buhronlar, bunda davlatlarning nisbiy afzalliklari investorlarni daromadni oshirishga undovchi mexanizmdir. Shu nuqtayi nazardan, investorlar mablag‘ini nisbatan arzon xomashyo, mehnat, energiya, ishlab chiqarish resurslari va qulay infratuzilimga ega hududga joylashtirishga intiladi.

Davlatimiz rahbari AQSHning yetakchi kompaniyalari investitsiya tashabbuslarini shaxsan qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini, O‘zbekiston xorijiy investorlar uchun hamkor va muvaffaqiyat kafolati bo‘lib qolishiga ishonch bildirdi.

AQSHning yetakchi kompaniyalari, investitsiya fondlari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan o‘tkazilgan muloqot yakunida o‘zaro manfaatli bitimlar imzolandi. O‘zbekiston Geologiya vazirligi va “Denali

Exploration group” kompaniyasi o‘rtasida nodir yer elementlarini ishlab chiqarish, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda “Re Element Technologies” kompaniyasi o‘rtasida nodir metallar sohasida loyihalarni amalga oshirish, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda “Flowserve” kompaniyasi o‘rtasida nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar shular jumlasidan.

Shuningdek, tegishli vazirliklar va AQSH kompaniyalari o‘rtasida suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sun‘iy intellekt sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, samolyotlar, paxta, soya va shrot yetkazib berish bo‘yicha bitim va shartnomalar tuzildi.

Mazkur kelishuvlarning har biri iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida davlatimizning strategik yo‘nalishiga mos keladi. Ya‘ni AQSH bilan kelishuvlar milliy iqtisodiyotimizning yuqori sur‘atdagi raqobatbardoshligini ta‘minlashga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan va yuqori qo‘shimcha qiymat yaratadigan investitsion loyihalarni tashkil etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib berayotgan, iqtisodiyotning raqobatbardosh zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko‘maklashayotgan hamkor davlatga imtiyozlar berish bevosita yurtimizning ochiqlik darajasini ifodalaydi. Bunda yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor uyg‘unligini ta‘minlashga e‘tibor qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotimiz, xalqimiz farovonligi uchun investitsion muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha yuritilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ijobiy natija berib, O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng jozibador davlatlardan biriga aylanmoqda.

O‘ZBEKISTON — AQSH:  
STRATEGIK SHERIKLIKNING  
MUHIM BOSQICHI

O‘zbekistonning keyingi yillardagi ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosati davlatimizning xalqaro nufuzini oshirish bilan birga barqaror, ulkan imkoniyatlarga eshik ham ochmoqda. Bugungi global geosiyosiy sharoitda tenglik, faol hamkorlik, o‘zaro manfaatdorlik, tinchlikparvarlikka asoslangan tashqi siyosiy tutumlar hisobiga yangi O‘zbekistonning jahon maydonidagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada oshmoqda.

Nargiza SALOMOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining ochiqlik va ishonchga asoslangan yondashuvi mintaqaviy siyosatga yangi nafas olib kirdi. Davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, tenglik va muvozanat tamoyillari bugun xalqaro munosabatlarda namuna bo‘lyapti. AQSH ham ana shu jihatlarni tan olgan holda O‘zbekiston fonida mintaqani mustaqil siyosiy markaz sifatida qabul qilyapti, uni global hamkorlikdagi teng sherik sifatida ko‘rmoqda.

AQSH innovatsiya borasida jahonda yetakchi bo‘lsa, O‘zbekiston ulkan bozor, yuqori sur‘at bilan rivojlanayotgan iqtisodiyot, kuchli inson salohiyatiga ega davlatdir. Prezidentimizning qat‘iy siyosiy irodasi va ochiq tashqi siyosati tufayli O‘zbekiston — AQSH munosabatlari yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Ikki davlat Prezidentlarining siyosiy irodasi natijasida keyingi yillarda tovar ayiriboshlash hajmi

sohasidagi hamkorlik strategik sheriklikni yanada mustahkamlaydi. O‘zbekistonning AQSH fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejim joriy etgani mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniyat va ta‘lim almashinuvini rivojlantirishga keng imkon yaratadi.

Oxirgi ikki-uch oyda Prezidentlar — Shavkat Mirziyoyev va Donald Trampning telefon orqali va yuzma-yuz o‘tkazgan bir necha samimiy muloqoti AQSH O‘zbekistonni shunchaki hamkor emas, balki uzoq muddatli loyihalarni rivojlantirishi mumkin bo‘lgan mamlakat sifatida ko‘rayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

AQSH yetakchisining davlatimiz rahbariga bildirgan iliq fikrlari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar muloqot yangi bosqichga ko‘tarilganining kuchli va aniq belgisidir. Jumladan, u ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida “Shavkat Mirziyoyev



4 barobar ko‘payib, qariyb 1 milliard dollarga yetdi. O‘zbekistonda AQSHning 300 dan ortiq kompaniyasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Qolaversa, sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika va innovatsiya sohaslarida qator yirik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilayotir.

O‘zbekiston va AQSH muloqoti endi yangi amaliy mazmun kasb etmoqda. Xususan, mineral resurslar, energiya xavfsizligi va savdo

— bir so‘zli inson”, deb e‘tirof etdi. Bu yuksak fikr jahon ommaviy axborot vositalari orqali tez tarqaldi va O‘zbekiston Prezidenti shaxsini e‘tirof etish barobarida uning rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlarga ishonch ramziga aylandi. Bundan AQSH Prezidentining O‘zbekiston bilan uzoq muddatli, barqaror sheriklik rejalari katta ekanini anglash mushkul emas.



mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etishga qo‘shayotgan shaxsiy hisssasi va sa‘y-harakatlarini alohida qayd etdi. O‘z navbatida, Donald Tramp shu kunlarda O‘zbekiston yetakchisi AQSH hukumati vakillari, yirik kompaniyalari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan samarali uchrashuv va muzokaralar o‘tkazganini olqishladi.

Shu nuqtayi nazardan, bu muloqot va erishilgan kelishuvlar O‘zbekiston — AQSH o‘rtasida o‘zaro hurmat va manfaatga asoslangan munosabatlarning yangi qirralarini ochib, hamkorlikni aniq loyiha va kelishuvlar bilan boyitishga xizmat qildi. Bu, o‘z navbatida, tomonlarning o‘zaro ishonchini yanada mustahkamlab, ko‘pqirrali hamkorlikni rivojlantirishga ham zamin bo‘ldi.

O‘zbekiston va AQSH tashabbusi bilan tashkil etilgan “C5+1” formati mintqa mamlakatlarini umumiy maqsadlar — barqaror rivojlanish, iqtisodiy o‘sish, xavfsizlik va ekologiyani mustahkamlash yo‘lida birlashtiruvchi samarali muloqot vositasiga aylandi.

O‘zbekistonning “C5+1” doirasidagi faol roli alohida ahamiyatga ega. Zero, Prezidentimiz tashabbusi bilan bu format yangicha mazmun kasb etdi. Geosiyosiy emas, amaliy iqtisodiy va gumanitar hamkorlikka asoslangan mexanizm sifatida shakllandi. Toshkent tomonidan nafaqat g‘oyalari, balki ularni amalga oshirishning aniq amaliy mexanizmlari ham taklif etilayotir.

Davlatimiz rahbarining Prezident Donald Tramp raisligida o‘tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitda ishtirok etgani ushbu tadbirning nufuzini tom ma‘noda yanada oshirdi. Ushbu sammit Markaziy Osiyo va AQSH o‘rtasidagi strategik muloqotni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Oliy darajadagi sammitning tashkil etilishi AQSH va mintqa mamlakatlari o‘rtasida yangi mas‘uliyat va samarali hamkorlik davri boshlanganidan darak beruvchi signaldir. Bunga qadar hech qachon Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bir paytning o‘zida Oq uyda jam bo‘lib, AQSH bilan muzokara o‘tkazmagan etdi.

Davlatimiz rahbari “C5+1” formati doirasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, mintqa qishloq xo‘jaligini Amerika texnologiyalarini joriy etgan holda modernizatsiya qilish maqsadida Mintaqaviy agrotexnologik innovatsiyalar sherikligini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Bu qishloq xo‘jaligini zamonaviy, ilmiy-texnologik asosda rivojlantirish, hosildorlikni oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbusdir.

Ushbu tashabbus amalga oshsa, mintaqada innovatsion agrotexnologiyalar joriy etilib, qishloq joylarda ish o‘rinlari ko‘payadi. Oziq-ovqat eksporti o‘sib, ekologik barqarorlik ta‘minlanadi. Eng muhimi, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida iqtisodiy integratsiya mustahkamlanadi. Shu bois, bu tashabbusni faqat texnologiya emas, balki mintaqaviy hamjihatlik, innovatsion rivojlanish va barqaror qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan strategik dastur deyish mumkin.

Navbatdagi sammitni Samarqand shahrida o‘tkazish taklifi esa alohida ahamiyatga ega. Ushbu taklif ishtirokchi davlatlar tomonidan yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlandi. Bu bejiz emas, albatta. Binobarin, Samarqand — jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri, “Sharq gavhari”, “Tamaddunlar chorrahasi” sifatida tanilgan. Sammitni aynan shu shaharda o‘tkazish xalqaro hamjamiyatga O‘zbekistonning boy tarixiy merosi va madaniy muloqot an‘analarga yuksak hurmatini namoyon etadi. Zero, Samarqand tinchlik, muloqot va hamjihatlik ramzidir. Davlatimiz rahbarining taklifi ham aynan shu g‘oyalarga mos bo‘lib, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatda tinchlik va barqaror taraqqiyot tashabbuskori sifatidagi mavqeyini mustahkamlaydi.

Qisqasi, sammitda O‘zbekiston ilgari surgan barcha tashabbus Toshkentning faol diplomatiyasini namoyon etadi. “C5+1” formati nafaqat siyosiy muloqot, balki iqtisodiy hamkorlik uchun ham yangi imkoniyatlarni yaratadi. Umuman aytganda, bugun O‘zbekiston va AQSH munosabatlarida o‘ziga xos tarixiy sahifa ochildi. Okeanortiga tashrif o‘zga hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘lib, ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish, hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirishga zamin hozirlaydi. Eng muhimi, siyosiy muloqotni mustahkamlab, avval imzolangan investitsiya kelishuvlari amalga oshirishini tezlashtiradi.



Sharh

NARXLAR BARQARORLASHIB,  
AHOLINING REAL DAROMADI OSHMOQDA

Markaziy bank har oy yakuni bo‘yicha aholi va tadbirkorlar o‘rtasida an‘anaviy tarzda so‘rovnoma o‘tkazib, inflyatsion kutilmalar sharhini e‘lon qilib boradi. Oktabr uchun tayyorlangan hisobotda inflyatsion kutilmalar sentabrdagiga nisbatan pasayib, mos ravishda 11,7 va 11,1 foizni tashkil etgani ma‘lum bo‘ldi. Markaziy bank sharhiga ko‘ra, kommunal xizmatlar, yoqilg‘i va energetika narxi oshishi asosiy xavotirligicha qolmoqda. Eng yuqori inflyatsion kutilmalar poytaxt va Toshkent viloyatida kuzatiladi.

Aprel-may oyidan buyon barqaror bo‘lib kelayotgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining mavsum bilan bog‘liq omillar hisobiga qimmatlashishi bo‘yicha kutilmalar darajasi bir oz ko‘tarilgan. Ish haqi va nafaqalarning oshishi hamda transport xizmati qimmatlashuvining inflyatsiyaga ta‘sirini aholini kamroq tashvishga sola boshlagan.

Valyuta kursining o‘zgarishi bo‘yicha xavotirlar so‘mning dollarga nisbatan mustahkamlanishi fonida o‘zining tarixiy

minimumlarigacha pasaygan. Markaziy bank sharhiga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismi kelgusida narxlar keskin o‘zgarishligi va bosqichma-bosqich pasayib borishini kutmoqda.

Oktabrda tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham o‘tgan oyga nisbatan 0,6 foiz bandga sekinlab, 11,1 foizni tashkil etdi. Biznes vakillari nuqtayi nazarida narxlarga oshiruvchi bosim ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy omillar sezilarli o‘zgarishsiz saqlanib qolmoqda. Sentabrdan boshlab

tadbirkorlarning xomashyo narxi oshishi bo‘yicha xavotiri kuchaymoqda. Ayni paytda ish haqi va nafaqalar, shuningdek, dollar kursi oshishi, soliq yuki yuqorilgini ta‘kidlaganlar ulushi kamaygan.

Aholi orasida eng yuqori inflyatsion kutilmalar maishiy xizmatlar sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo‘lsa, nisbatan past kutilmani pensionerlar qayd etdi. Sentabrda eng yuqori inflyatsion kutilmalar pensionerlar tomonidan bildirilgan.

Tadbirkorlar orasida yuqori inflyatsion kutilmalar madaniyat va san‘at sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar tomonidan qayd etilgan bo‘lsa, nisbatan past kutilmalar qishloq xo‘jaligi sohasida kuzatiladi.

“Xizmat ko‘rsatish sohasi vakillarining narx o‘zgarishiga tezroq javob berishi tabiiy — ularning kutilmasi yuqoriroq. Ta‘lim va ilmiy faoliyat qilish shug‘ullanayotganlar orasida narxlar bo‘yicha yondashuv yanada sokin”, deya izohlaydi regulyator.

Daromadi 7 million so‘mdan yuqori bo‘lgan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM  
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllangan.

Hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda inflyatsion kutilmalarning yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahri va viloyatida kuzatilgan. Nisbatan past kutilmalar darajasi Farg‘ona vodiysidagi viloyatlarga to‘g‘ri keladi. Markaziy bankingning qayd etishicha, bu hududdagi bozor sharoiti va xarajatlar tarkibidagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Shuningdek, bunga aholining daromad darajasini qo‘shimcha qilish mumkin.

Markaziy banking xulosa qilishicha, so‘rov natijalari narxlar bo‘yicha kutilmalar bosqichma-bosqich pasayayotganini ko‘rsatmoqda. Bu, bir jihatdan, iqtisodiy ishonch shakllanayotganidan, ikkinchi tarafdan esa qarorlar va signalning ehtiyotkorlik bilan baholalanayotganidan dalolat beradi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, joriy yil yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonda o‘rtacha oylik ish haqi 6,2 million so‘mni tashkil etdi. Bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan 19,2 foiz ko‘p. Eng ko‘p oylik maosh Toshkent shahri aholisiga to‘g‘ri kelmoqda — 10,3 million so‘m. Eng kam ish haqi oladiganlar esa Surxondaryo viloyatida — 4,3 million so‘m.

Shuningdek, manbaga ko‘ra, ayni paytda eng ko‘p maosh bank, sug‘urta, lizing hamda kredit vositachiligi xodimlariga to‘lanmoqda — 16,8 million so‘m. Ikkinchi o‘rinni esa informatsion texnologiyalar va aloqa sohasi xodimlari band etgan. Ular o‘rtacha 14,9 million so‘m maosh olmoqda.

Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik ish haqi 9,3 million so‘mni tashkil etgan bo‘lsa,

sanoat sohasida o‘rtacha 7,3 million so‘m to‘lanmoqda. Ayni paytda eng kam oylik ish haqi ta‘lim sohasi xodimlariga berilmoqda — 4,2 million so‘m.

Tuman va shaharlar orasida eng yuqori maosh Mirobod tumanida (13,1 million so‘m), eng past ish haqi esa Qamashi tumanida (3 million so‘m) qayd etildi. 28 ta tuman (jami tumanlarning 13,6 foizida) ish haqi respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori shakllangan. Mazkur tumanlarni hisobga olmaganda respublikadagi o‘rtacha ish haqi 4 million so‘mni tashkil etadi.

Aksariyat hududlarda ish haqi mamlakatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichning 70 foizidan past. Xususan, o‘rtacha ish haqi 4,3 million so‘mdan kam bo‘lgan tumanlarni soni 136 tani yoki jami tuman va shaharlarning 66 foizini tashkil etadi. Shuningdek, Amudaryo, Qamashi va Mirishkor tumanlarida ish haqi respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichning yarmini ham tashkil etmaydi.

Joriy yilning o‘tgan davrida nisbatan daromad past tumanlarda yuqori o‘shish qayd etilmoqda. Xususan, maoshi mamlakatdagi o‘rtacha ish haqidin past bo‘lgan hududlarda o‘rtacha o‘shish 18,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, o‘rtacha ish haqidin yuqori tumanlarda mazkur ko‘rsatkich 17,5 foiz bo‘lgan.

Markaziy bank va Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlarida ham ko‘rish mumkin. Joriy yil boshidan buyon narxlar mavsumiy tebranishlarni hisobga olganda ham aholi va tadbirkorlarda jiddiy xavotir uyg‘otmagan. Aholining real daromadi esa muttasil o‘shishda davom etmoqda.

Yunus BO‘RONOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

# Bunga bilim orqali erishiladi

**Narzullo OBLOMURODOV,**  
Toshkent davlat agrar universiteti  
rektori, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

Butun jahon e’tirof etayotgan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli, jadal islohotlar jamiyatning asosiy drayveri bo’lgan yoshlarimizdan bor bilim va salohiyatini, kuch va imkoniyatini, butun azmu shijoatini ishga solishni taqozo etmoqda. Zero, yangi O’zbekistonning jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e’tibor va iqtisodiy qudratga ega bo’lishi, har tomonlama rivojlangan mamlakatga aylanishi uchun bu o’ta zaruraddir. Ushbu maqsad yo’lida yoshlarga sifatli ta’lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o’rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o’rin topishiga ko’maklashish esa davlatimizning asosiy vazifasiga aylangan. Buning uchun zamon talabidan kelib chiqqan holda barcha zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

## Inson kapitali — hayotiy zarurat

Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar ta’lim xizmatlari bozorida sog’lom raqobat muhitini yaratish, ilg’or standartlarni joriy etish, mazmuni sifat jihatidan yangi darajaga ko’tarish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo’lga qo’yishga qaratilgan.

O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, o’quv dargohlari infratuzilmasi hamda moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o’zini o’zi moliyalashtirish tizimiga o’tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, mehnat bozorida o’z o’rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo’lga qo’yish orqali O’zbekistonn



## Tahlil

**Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida insoniyat hayotining deyarli barcha sohasi internet maydoniga ko’chmoqda. Ilgarigidek qog’oz hujjatlar, navbatlar va hisob-kitoblar o’rnini endi elektron tizimlar, raqamli xizmatlar va mobil ilovalar egalladi. Ta’lim, to’lovlar, hatto tadbirkorlik faoliyati ham onlayn rejimda yo’lga qo’yilmoqda.**

Bu jarayon insonlarga qulaylik yaratish bilan birga iqtisodiyot uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Birgina elektron to’lov tizimlari, raqamli bank xizmatlari va elektron savdo platformalari iqtisodiy faollikni oshirmoqda. Natijada davlat xizmatlari fuqarolar uchun yanada shaffof va qulay shaklga aylanmoqda.

Biroq har qanday imkoniyat kabi raqamli dunyo ham muammolardan xoli emas. Bu qulayliklar soyasida yangi tahdid — kiberjinoyatchilik ham qadam-baqadam yuribdi. Ilgari yuqorilarning bankka bostirib kirgan bo’lsa, bugun ular klaviatura, elektron xabar va soxta havolalar orqali ish bitirmoqda.

Yaqinda bir tanishim bilan bo’lgan voqeani misol keltirsam. Unga begona raqamdan qo’ng’iroq qilib, bir kishi o’zini bank xodimi sifatida tanishtirgan va 11 foizdan onlayn kredit olish imkoni mavjudligi haqida aytgan. Avvaliga bunday qulay qarzni qaysi bank berayotgani meni ham juda qiziqitirdi. So’ng tanishimdan

# RAQAMLI IQTISODIYOTDA ISHONCH — ENG QIMMATLI KAPITAL

unga qo’ng’iroq qilgan bank xodimiga ma’lumotlarni topshirmay turishni so’rab, ijtimoiy tarmoqlar orqali o’sha bankning ishonch raqamini topib, xodimlari bilan bog’landim. Vaziyatni tushuntirganimda bunday foizli kredit berilmayotganini aytishdi.

Bir qarashda oddiy tuyuladigan bu kabi holatlar jamiyatda nafaqat shaxsiy mablag’ni yo’qotish xavfini yuzaga keltiradi, balki iqtisodiy tizimga ishonchni so’ndirishi, bozorda faol ishtirok etayotgan fuqarolarning moliyaviy barqarorligini izdan chiqarishi mumkin.

Farovon jamiyat markazida inson qadri, huquqi va xavfsizligi turadi. Demak, raqamli xavfsizlik ham endi ijtimoiy barqarorligimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu masala faqat dasturiy himoya yoki shifrlangan parollar bilan chegaralanmaydi. U insonning ishonchi, axborot madaniyati va iqtisodiy mas’uliyati bilan chambarchas bog’liq.

Bugun O’zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshgani aytilmoqda. Bu raqam jamiyatimiz hayotining barcha sohasi — ta’lim, biznes, moliya, xizmat ko’rsatish, hatto davlat boshqaruvi ham raqamli maydonga ko’chganini anglatadi.

Biroq so’nggi besh yilda mamlakatimizda kiberjinoyatlar soni 68 barobar oshdi. Birgina joriy yilning o’zida 46 mingdan ortiq kiberjinoyat

## Qishloq xo’jaligida ta’lim va ilm-fan integratsiyasi

Bugun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga talab kun sayin oshib borayotgani, global iqlim o’zgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi qishloq xo’jaligi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ana shunday murakkab sharoitga qaramay, mamlakatimiz qishloq xo’jaligi xodimlari mo’l hosil yetishtirib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlab, qishloq xo’jaligi mahsulotlari eksporti geografiyasi va ko’lamini yil sayin oshirishga alohida hissa qo’shmoqda.

Bunga erishishda qishloq xo’jaligi rivojiga qaratilayotgan yuksak e’tibor, tarmoqda tub tarkibiy o’zgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish munosabatlari zamon talabari asosida yo’lga qo’yilayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lmoqda. Ayniqsa, sohaga ilg’or agrotexnologiyalar, ilm-fan va innovatsiya yutuqlari keng joriy etilayotgani ijobiy natija bermoqda.

Toshkent davlat agrar universiteti qariyb bir asrlik tarixi davomida nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi oliy ta’lim muassasasi sifatida qishloq xo’jaligi uchun kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo’shib kelmoqda.

Hozir universitetimiz o’quv-ilmiy faoliyatini aynan shu tamoyillar asosida yo’lga qo’yib, biotexnologiya, agrotexnologiya, agroekologiya hamda yangi innovatsion agrotexnologiy yechimlar bo’yicha tadqiqotlar o’tkaziladigan yetakchi ilmiy muassasa sifatida amaliy natijalarni namoyon etmoqda. Agrar ilm-fani va ta’limini har tomonlama qo’llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan qator muhim farmon va qarorlar soha oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, ta’lim sifatini oshirish hamda ishlab chiqarish bilan uzviy rivojlanishini ta’minlashga mustahkam poydevor bo’lib xizmat qilmoqda.

So’nggi yillarda universitet olimlari tomonidan 150 dan ortiq patent (ixtiro va foydali modellar uchun), 60 dan ziyod dasturiy mahsulot uchun mualliflik guvohnomalari olingan bo’lib, oliyoghdagi ilmiy faoliyatining natijadorligi amaliyot bilan uzviy bog’liqligidan dalolat beradi.

Iqlim o’zgarishlariga qarshi kurashish, ilmiy asoslangan holda zarur agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, suvsizlik va sho’rga chidamli ekin turlari va navlarini joriy etishga qaratilgan ilmiy loyihalarga e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, olimlarimiz tomonidan Xalqaro biodehqonchilik markazi (ICBA) bilan hamkorlikdagi ilmiy loyiha doirasida 74 ta amaratn nav o’quv-ilmiy tajriba xo’jaligida muvaffaqiyatli introduksiya qilinib,

Qoraqalpog’istonning Mo’ynoq, Chimboy va Nukus tumanlaridagi degradatsiyaga uchragan 150 gektar yerga ekish uchun sifatli urug’lik yetkazib berildi. Natijada degradatsiyaga uchragan yer maydonlaridan samarali foydalanish imkoni yaratildi. Shuningdek,



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O’QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



ilmiy loyihalar doirasida Jizzax, Xorazm va Farg’ona viloyatlarining sho’rlanishga moyil tuproq sharoitida kuzgi bug’doy hamda takroriy ekin sifatida shirin makkajo’xorini zamonaviy sug’orish agrotexnologiyalari (yomg’irlatib va tomchilatib sug’orish) asosida yetishtirish bo’yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

“O’zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, 2030-yilga qadar oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish belgilangan bo’lib, bu borada universitet ham ijobiy natijalarga erishmoqda. Bugun universitetimizda ilmiy faoliyat bilan shug’ullanayotgan yoshlar soni 300 nafardan oshib, ilmiy salohiyat darajasi 72,5 foizga yetdi. Universitetning milliy va xalqaro reytinglardagi o’rmi mustahkamlanmoqda.

So’nggi yillarda taklif va xorijiy tajriba asosida 14 ta yangi bakalavriat ta’lim yo’nalishi hamda 17 ta magistratura mutaxassislgi bo’yicha kadrlar tayyorlash yo’lga qo’yildi. Qabul kvotalari izchil oshirilib, 2025-2026-o’quv yilida magistratura dasturlari bo’yicha tahsil olayotgan yoshlar soni 500 nafardan oshdi. Shu bilan birga, meteorologiya va iqlimshunoslik, xalqaro qishloq xo’jaligi, atrof-muhit, suv resurslarini boshqarish, geoaxborot tizimlari va texnologiyalari, veterinariya jarrohligi kabi yangi yo’nalishlar bo’yicha kadrlar tayyorlash boshlandi. Bu o’zgarishlar global iqlim o’zgarishlari va tabiiy-iqtisodiy sinovlar sharoitida qishloq xo’jaligi sohasini barqaror rivojlantirishga qodir, zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

## Xalqaro hamkorlik — raqobatbardoshlik garovi

Kadrlar malakasini oshirish, yetakchi xorijiy universitet va ilmiy markazlarda stajirovkalar tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Birgina joriy yilning o’zida universitetning 200 ga yaqin professor-o’qituvchisi Xitoy, AQSH, Rossiya, Germaniya, Vengriya, Polsha, Malayziya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlarning nufuzli oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga akademik mobillik dasturlari, xalqaro stajirovka va malaka oshirish kurslarida ishtirok etib qaytdi. Shuningdek, Germaniya, Polsha, Finlyandiya, Turkiya, Malayziya, Janubiy Koreya, Xitoy va Rossiyaning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining 30 nafardan ortiq professor-o’qituvchisi oliyoghd o’quv mashg’ulotlariga jalb etildi. Universitetning 30 talabasi Xitoy ta’lim grantini qo’lga kiritib, 1 yil davomida akademik almashinuv dasturi asosida tahsil olish uchun Anxoy va Shinjon qishloq xo’jaligi universitetlariga yuborildi. Shuningdek, 4 talabamiz Italiyaning Tusia universitetiga magistratura bosqichida tahsil olish uchun ta’lim grantini qo’lga kiritdi, yana 2 talaba Erasmus+ loyihasi almashinuv dasturi doirasida tahsil olish uchun ta’lim granti sohibi bo’ldi. 2025-yilda 152 talabamiz bir necha mamlakatga haq to’lanadigan o’quv va ishlab chiqarish amaliyotlariga yuborildi. Ushbu yo’nalishdagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida qator mamlakatlar bilan talabalar amaliyoti hamda yosh olimlar stajirovkasini tashkil etish bo’yicha kelishuvlarga erishildi.

Tahsililar ko’rsatmoqdaki, agrar sohada oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash va ta’lim sifatini oshirishda yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlik yo’lga qo’yilishi, pedagog xodimlar malakasini oshirish, akademik mobillik hamda talabalar almashinuv dasturlari joriy etilishi juda muhim. Bugungi kunda nufuzli xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 20 ta qo’shma ta’lim dasturi tashkil etilgan. Jumladan, Xitoyning Shimoli-g’arbiy qishloq va o’rmon xo’jaligi universiteti bilan hamkorlikda 5 ta mutaxassslik —

“Agronomiya”, “O’simliklarni himoya qilish”, “Chorvachilik”, “Mevachilik” va “Biznesni boshqarish” bo’yicha magistratura, ya’ni 1+1 qo’shma ta’lim dasturlari yo’lga qo’yilgan. Unga ko’ra, yurtimiz yoshlariga mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan mutaxassisliklar bo’yicha bir yil universitetda tahsil olish, ikkinchi yili o’qishni Xitoyning nufuzli universitetida grant asosida davom ettirish imkoniyati berildi. Bugun 50 dan ortiq yosh shu dasturlar bo’yicha ta’lim olmoqda.

Bundan tashqari, AQSH, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Vyetnam, Turkiya, Polsha, Rossiya va Qozog’istonning 30 dan ortiq oliy ta’lim muassasasi bilan qishloq xo’jaligi oliy ta’limini modernizatsiyalash, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashning ustuvor yo’nalishlari bo’yicha xalqaro hamkorlik dasturi hamda loyihalar amalda. Janubiy Koreyaning Geongkuk milliy universiteti bilan hamkorlikda asalarichilikni rivojlantirish bo’yicha umumiy qiymati 1,2 million dollarga teng loyiha amalga oshirilib, ikkita o’quv laboratoriyasi keltirildi. Ushbu mamlakatning Chungnam milliy universiteti bilan hamkorlikda bog’dorchilik va tuproqshunoslik yo’nalishlari bo’yicha ikkita zamonaviy o’quv-ilmiy laboratoriya tashkil etildi.

Qishloq xo’jaligining dolzarb yo’nalishlari bo’yicha O’zbekiston — Xitoy, O’zbekiston — Turkiya, O’zbekiston — Italiya xalqaro qo’shma tanlovlarida ishtirok etish uchun 10 dan ortiq ilmiy loyiha tayyorlandi. Shinjon qishloq xo’jaligi akademiyasi bilan hamkorlikda qishloq xo’jaligi ekinlaridan kartoshkaning 6 ta, pomidorning 4 ta, bodringning 2 ta, shirin qalampirning 1 ta, ko’katlamning 5 ta navini yetishtirish bo’yicha ko’rgazmali dala maydonlari tashkil etilib, hamkorlikda yangi ekin navlari va duragaylarni yaratish borasida ilmiy tadqiqot qilinmoqda.

Joriy yildan boshlab Shimoli-g’arbiy qishloq va o’rmon xo’jaligi universiteti bilan hamkorlikda xitoy tili markazi ochilib, talaba yoshlarimizga o’quv kurslari, adabiyotlar va malakali pedagoglar yordamida xitoy tilini puxta o’rganish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

## Zamonaviy infratuzilma — sifat kafolati

Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar agrar ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar taraqqiyotida yangi sahifa ochib bermoqda. Universitetimizdagi qurilish-bunyodkorlik ishlari tom ma’nod yangi davrni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy me’moriy yechimlarga, barcha qulayliklarga ega o’quv binolari, ilmiy laboratoriyalar, o’quv-ilmiy tajriba xo’jaligi, talabalar turar joylari, sport va madaniyat inshootlari barpo etilishi hamda yangi qiyofaga kirishi yoshlarning ta’lim olishi, ilmiy-pedagogik jamoa samarali ishlashi uchun katta imkoniyat bermoqda. Qisqa muddatlarda 4 qavatli o’quv binosi to’liq rekonstruksiya qilinib, eng zamonaviy talablarga javob beradigan o’quv va ilmiy laboratoriyalar tashkil etildi.

Ayni paytda universitetning yangi qiyofasini shakllantiradigan 5 qavatli o’quv binosi, ma’ruza zallari majmuasi hamda xalqaro standartlarga javob beradigan sport majmuasi qurilmoqda. Talabalar turar joylari va fakultet binolari kapital ta’mirlanib, universitet hududidagi yo’llar, tashqi yoritish, suv ta’minoti va istish tarmoqlari ham modernizatsiya qilinmoqda. “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida universitet hududida keng ko’lamli obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilib, turli daraxt va gul ko’chadlari ekilib, ularni sug’orish uchun zamonaviy tizim barpo etildi. Bu o’zgarishlar nafaqat universitetimiz, balki mamlakatimiz ta’lim tizimidagi umumiy islohotlar — yangi O’zbekistonning yangi avlodi uchun munosib sharoit yaratish yo’lidagi sa’y-harakatlarining amaliy natijasi sifatida namoyon bo’lmoqda.

qilindi. Davlat xaridlarini raqamlashtirish natijasida bir yilda 7,5 trillion so’m mablag’ tejaldi. Bu iqtisodiy samara bo’lish bilan birga korruptsiya va ortiqcha byurokratiyaning oldini olishdir.

Bugun raqamli nazorat va qonun ustuvorligi ham alohida ahamiyatga ega. Yil boshidan buyon 7000 dan ziyod qonunga zid hujjat qabul qilingani va 12 ming 500 tadbirkorning huquqlari buzilgani raqamli tizimlar zarurligini namoyon etadi. Shu bois, qarorlarning qonuniyligini avtomatlashtirilgan tarzda tekshirish va masofaviy nazorat tizimini yo’lga qo’yish muhim.

Raqamli tizim qanchalik mukammal bo’lmasin, inson ongi va ma’naviy madaniyat bilan uyg’unlashmasa, xavf hamisha saqlanib qolaveradi. Shu sababli davlatimiz rahbari sun’iy intellekt, kiberhuquq va raqamli huquq sohalarida kadrlar tayyorlash vazifasini belgilab berdi.

Har bir foydalanuvchi, xodim va tashkilot o’z raqamli izi uchun mas’ul. Axborot madaniyati yangi tafakkur mezonidir. Agar inson ogoh, vijdoni uyg’oq bo’lsa, har qanday kiberjinoyat ojiz qoladi. Lo’nda aytganda, raqamli xavfsizlik nafaqat texnologiya, balki milliy tafakkur, ma’naviyat va huquqliy madaniyat masalasiga aylanmoqda. U inson ongi va fuqarolik mas’uliyati bilan mustahkamlansa, davlatning eng qimmatli kapitali — ishonch saqlanadi va jamiyatning barqaror taraqqiyoti ta’minlanadi.

Demak, raqamli iqtisodiyot tez rivojlansa, uning xavfsizlik tizimi ham shunchalik mustahkam bo’lishi kerak. Kiberxavfsizlik bugun faqat axborot muammosi emas, balki iqtisodiy siyosatning muhim yo’nalishiga aylanmoqda. Chunki raqamli dunyoda insonning eng katta boyligi ma’lumot emas, ogohlik va ishonchdir.

**Sardor TOLLIBOYEV,**  
“Yangi O’zbekiston” muxbiri



texnologik va ilmiy-uslubiy asoslarni tubdan takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi. Shaxsiy ma’lumotlarni shifrlab saqlash, ma’lumotlar bilan ishlovchi shaxslarning yagona reyestri, huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish zarur.

Moliyaviy tizimni muhofaza qilish ham eng muhim vazifa. Banklar va moliya institutlarida firibgarlar ta’sirini cheklash, soxta qarzlarni undirmaslik va shubhali hisobvaraqlarni

avtomatik bloklash mexanizmlari joriy etiladi. Bu fuqarolarning shaxsiy manfaatini himoya qilish bilan birga butun iqtisodiy muhitga ishonchni mustahkamlaydi. Chunki raqamli iqtisodiyotda ishonch eng qimmatli kapitaldir.

Texnologiyalar xavf emas, balki xavfsizlikning eng samarali vositasiga aylanmoqda. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Kiberxavfsizlik markazi salohiyati oshirilib, yetti turdagi yangi ekspertiza tizimi joriy



# FARZANDLIK BURCHINI JASORAT BILAN ADO ETDI

25 yil muqaddam

2000-yilda qo‘shni davlat orqali O‘zbekiston chegarasini buzib, Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlariga suqilib kirgan terrorchilarga qarshi janglarda katta leytenant Shermuhammad Ashirov ham katta jasorat ko‘rsatdi.

Vatan himoyachisi bo‘lish har bir yigitning orzusi. Bunday sharaflari va mashaqqatli burchini yorug‘ yuz, uyg‘oq vijdon bilan o‘tash, kindik qoni to‘kilgan muqaddas zaminini ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylash, yurt osoyishtaligi yo‘lida aziz jonidan kechish fidoyilik talab etadi.

Shermuhammad Ashirov aynan shunday xislatlarga ega, g‘ururli o‘g‘lon edi. U vatanparvarlikni faqat kitoblarda o‘qib, filmlarda ko‘rib emas, balki onasining qo‘lidagi qadoq, otasining yuzidagi ajnalar orqali anglagan bo‘lsa, ajab emas.

Qahramonimiz Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanida ziyoli oilada bir so‘zli, yaqinlariga mehrlari bo‘lib kamolga yetadi. 1999-yili maktabni tamomlagach, o‘zi orzu qilgan Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtida tahsil olib, harbiy uchuvchi mutaxassisligni egallaydi.

Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida o‘rnatilgan terrorchilarga qarshi janglarda Shermuhammadga jangovar topshiriq beriladi. Yurt tinchligi, xalq osoyishtaligini muqaddas burch deb bilgan uchuvchi yigit topshiriqni bajarishga jiddiy kirishdi. Ular tog‘li hududda jangarilar guruhini aniqlab, yovga qattiq zarba beradi.

Biroq jangarilar otgan o‘q vertolyotning bir qismiga jiddiy zarar yetkazadi. Natijada vertolyot toqqa qarab qulay boshlaydi. Vaziyatni to‘g‘ri baholay olgan Shermuhammad qurolodosh do‘stlariga vertolyotdan parashyut bilan sakrashni, o‘zi esa boshqaruvni oxiriga yetkazib, so‘ng sakrashini aytadi. Sheriklarining hammasi sakragunicha o‘tgan vaqt oralig‘ida vertolyot tog‘ qoyasiga juda yaqinlashib qoladi. Safdoshlarining barchasi vertolyotdan sakraguniga ishonch hosil qilgan dovyurak uchuvchi dushman o‘qiga uchrab, kabinada qolib ketadi...

Qutqaruvchi guruh yetib kelganida vertolyot qoyaga urilib, jarlikka qulagan edi. Orzulari osmonga, kuchi bilagiga sig‘magan Shermuhammad 25 yoshida mardlaracha halok bo‘ladi. Xizmat burchini bajarish chog‘ida ko‘rsatgan mardligi, jasorati va fidoyiligi uchun II darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan mukofotlanadi. Yangiyo‘l tumanidagi 28-maktabga katta leytenant Shermuhammad Ashirov nomi berilgan, byusti o‘rnatilgan. Tuman ko‘chalarining biri ham uning nomi bilan ataladi.

## Eslassam, yuragim yonib ketadi

**Munixon aya, Shermuhammad Ashirovning onasi:**

— 25 yildirki, Shermuhammadimning yo‘liga termulaman, ko‘zimni darvozadan uzolmay yashab kelyapman. Kenjatoyim ortga qaytmasligini, qadam tovushlari ostonadan eshitilmasligini, “Oyi, sizni biram sog‘indim”, deya shovqin ko‘tarib kelmasligini bilsam-da, baribir kutaman, kutyapman. So‘nggi bor bolaginamning diydorini ko‘rmaganim uchunmi, vafot etganini bilsam-da, umidim hech so‘nmayapti.

Ona yuragi hamma narsani sezadi deyishsa, ishonmasdim. O‘g‘lim halok bo‘lgan tunda juda halovatsiz yotdim. Yuragim notinch, ko‘nglim g‘ash, o‘z-o‘zidan xo‘rligim kelib, bo‘g‘zimni nimadir kuydiraverdi. Tongga yaqin ko‘zim ilinibdi. Bolamni ismini aytib

dodlab, qora terga botib uyg‘onibman. Keyin ma‘lum bo‘lishicha, bolaginamning joni o‘sha tunda uzilgan ekan...

Nuridiydamning yurishiga, kiyinishiga ko‘pchilik havas qilardi. “Shu o‘g‘lingiz juda ko‘zga yaqin, mehri ham boshqacha”, deyishardi. Ha, kenjatoyim juda kelishgan, mehnatkash va xushchaqchaq, jonivorlarga mehrlari edi. Ayniqsa, ot minishni yaxshi ko‘rardi. Eslayversam ichim yonib, kuyib ketadi. Dunyolarga sig‘mayman. Oz yashadi, lekin ko‘plarning hayotini saqlab qoldi. Shuning uchun ham bolaginam o‘lmagan, elning duosida, xalqining xotirasida yashayveradi, deyman.

## Doim e‘tibordamiz

**Umida Ashirova, Shermuhammad Ashirovning rafqasi:**

— Turmush o‘rtog‘im vafot etganida 21 yoshda edim. Bir yarim yashar qizalog‘im Mahmudani bag‘rimga bosgancha chirqillab qolganman. Qizimning judolikka ko‘nikishi qiyin bo‘ldi. Tunlari dadasini qo‘msab yig‘lab chiqa, “tiq” etsa, “dadam keldi”, deya eshikka chopqillab borardi. O‘sha kunlami eslasam, yuragim o‘rtanib, bo‘g‘zimga nimadir tiqilganday bo‘laveradi.



Na qizganim otasining mehriga, diydoriga, erkalashlariga to‘ydi va na turmush o‘rtog‘im qizimning eng shirin damlarida, o‘ksigan chog‘larida, baxtli onalarida yonida bo‘ldi. Taqdir bizni shunday ayirdi.

Prezidentimiz bilan ikki marta uchrashdim. Birinchi marta 2023-yil 13-mart kuni davlatimiz rahbari Termiz shahridagi yosh chegarachilar harbiy akademik litseyida yurtimiz osoyishtaligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a‘zolari bilan uchrashganida ko‘rishdim. O‘sha uchrashuv hayotimda yuragimga mador bo‘lgan eng yorqin xotira sifatida muhrlanib qolgan. Prezidentimiz turmush o‘rtog‘imning nomini hurmat bilan tilga olganida hayajondan, quvonchdan boshim ko‘kka yetganday bo‘ldi.

Ikkinchi marta joriy yil 8-may kuni G‘alaba bog‘ida bo‘lib o‘tgan bayram tadbirida Prezidentimiz bilan uchrashdim. Davlatimiz rahbari qo‘l berib ko‘rishdi va bayram bilan qutladi. Bu e‘tibor va ehtirom menga umr yo‘ldoshimning shonli qismati tufayli nasib etdi.

Yoz oylarida “Yelkamda Vatanning yuki bor” nomli kitobning taqdimotiga taklif qilindim. Kitob bir guruh millat fidoyilari xotirasiga bag‘ishlab yozilgan ekan. Bilasizmi, o‘sha kitobning birinchi betida Shermuhammad Ashirov nomi, suratlari va ma‘lumotlari turibdi.



## TOPGANIMIZ BUYUK ISHLARGA BUYURSION

**Shahlo AHROROVA, Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti yetakchi ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori**



Agar to‘y qanday voqeelik deb so‘rasak, albatta, hamma azaliy urf, qadriyatimiz deb javob beradi. To‘g‘ri, azaldan bir hovlidan ikkinchisiga qiz uzatib, farzandlar boshi “ikki” qilinari ekan, buni elga bildirish uchun to‘y qilingan. Ya‘ni begona yigit uyiga boshqa hovlining qizi o‘z-o‘zidan kelib qolmagan, ular ota-onalar fотиhasi bilan, to‘y qilib olib kelingan. Masalaning xuddi ana shu elga bildirish mohiyati – qadriyat. Qadriyatlar esa dogmatik emas, ular mudom o‘zgarishda, zamon, makon, siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli takomillashib boradi, biroq mohiyatini saqlab qoladi.

To‘ylarimiz ham yillar davomida o‘ziga xos o‘zgarishlarga uchradi. Buni ko‘proq odamlarning o‘zi kiritib bordi. Kimdir “zamonaviyligini” namoyish qilish uchun Yevropaga xos udumini singirdi — vals qo‘shdi, gulni ortiga uloqtirdi va yana allambalo narsalar o‘ylab topildi, kimdir o‘zining saxiyligini bildirish yoki davlatini ko‘z-ko‘z qilish uchun dasturxon hajmi, seplari ko‘lami, mehmonlari sonini oshirgandan oshirdi. Dabdashabozlik va ko‘z-ko‘zchilikka o‘ch tabaga o‘rtasida kim-o‘zar boshlandi: turli bezak va hashamlar, to‘y o‘tkazish dasturlarida komplekslashuv, bayramona mushakbozlik, mashinalar karvoni kabi urflar o‘ylab topildi. Hatto qudanikiga olib boriladigan toylarga kimxob kiygizilib, qo‘ylar bo‘yniga alvon tasma bog‘landi. Xullas, kim nima “ijod” qilsa, to‘y hashamlariga olib borib qo‘shaverdi.

Natijada bugun o‘rtacha har biri 100 million so‘m xarajatni talab qiladigan to‘ylar majmuasi dunyoga kelib qoldi. Aslida, mohiyat nima edi, degan savol esimizdan ham chiqib ketdi. Ilgari yoshlarning bugungidek nikohdan o‘tishi rasmiylashtirilmagan va daliliy hujjat bo‘lmaganini tufayli elga bildirish urfi qo‘llanilgan va mohiyat ham shu edi. Hozir esa yoshlar qo‘liga nikoh guvohnomasi beriladi. Qolgan xoyu havaslarning barchasi shunchaki dabdashabozlik va ayrim hollarda kaltabinlik mevasi, xolos.

**Men to‘y qilinishiga mutlaqo qarshi chiqayotganim yo‘q, zero, u azaliydir. Keling, tarixiga yuzlanib ko‘raylik. O‘zbek millati, umuman, O‘rta Osiyo xalqida azaldan to‘yu tantanalar hayotning muhim qismini egallab kelgan. Hatto xalq og‘zaki ijodiga mansub ertak va dostonlarda ham oxirida asar qahramonlari bo‘lmish oshiqlar baxtiga yetib, “qirq kechayu qirq kunduz to‘y qilishgani” bayon etiladi.**

Bundan tashqari, Sharq xalqlarida jamoaviylik hissi ustun bo‘lib, ular o‘zligini